

“O‘zbekgeofizika” AJning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi 2024 yilning 1-choragi bo‘yicha HISOBOT*

I. Umumiy ma’lumot

“O‘zbekgeofizika” AJning 2024 yilda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturi hamda “O‘zbekgeofizika” AJda korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarga rioya etilishini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti” talablari asosida joriy yilning 1 choragida “O‘zbekgeofizika” AJga turli aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar bo‘yicha monitoring tartibidagi o‘rganishlar olib borildi.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida Jamiyatga turli aloqa kanallari orqali jami 7 ta ariza va murojaatlar (5 ta elektron shaklda va 2 og‘zaki) kelib tushgan, shundan 1 tasi kadrlar masalasi (ehtimoliy manfaatlар to‘qnashushi – “Farg‘ona geofizika ekspeditsiyasi” filiali) bo‘yicha, 1 tasi ta’lim kontrakt pulini to‘lab berish bo‘yicha, 5 tasi boshqa masalalar bo‘yicha.

Kelib tushgan arizalarni o‘rganish jarayonida korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘yilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar olinmadi.

Jamiyatga kelib tushadigan ariza va murojaatlarni ko‘rib chiqish “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 11 sentabrdagi 445-sonli Qonuni va Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 7 maydagi 341-sonli Qaroriga asosan, korrupsiya holatlari va xodimlarning noqonuniy hatti-harakatlari yuzasidan ariza va murojaatlarni “O‘zbekgeofizika” AJga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti” va “O‘zbekgeofizika” AJ xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlar va odob-axloq qoidalarini buzish holatlarni ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglament” talablari asosida amalga oshiriladi.

II. Ko‘rib chiqish natijalari

Joriy yilning 26 fevral kuni “O‘zbekgeofizika” AJga O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamenti Farg‘ona viloyati Boshqarmasidan, Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani, Chamanzor ko‘chasi, 24 uyda yashovchi fuqaro O.Sh.Ibragimovning **pm.gov.uz** portali orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga 16.02.2024 yildagi 40424-r/24-sonli yo‘llagan murojaati kelib tushgan.

Murojaatda ko‘rsatilishicha, fuqaro O.Sh.Ibragimov “O‘zbekgeofizika” AJ tarkibidagi “Farg‘ona geofizika ekspeditsiyasi” filialida ishlashini ta’kidlab, filial “Xodimlarni boshqarish, tayyorlash va qayta tayyorlash” bo‘limi boshlig‘i lavozimiga Jamiyatda belgilangan tartiblarga zid ravishda (oliy ma’lumotli, ushbu yo‘nalishda kamida 3 yil mehnat stajiga ega bo‘lgan shaxs) Aripov Azamatjon Azizjon-o‘g‘li tayinlanganligi va ushbu holat bo‘yicha qonuniy baho berilishini so‘rab murojaat qilgan.

Kelib tushgan murojaatga asosan, “Farg‘ona GE” filiali Attestatsiya komissiyaning 04.10.2023 yildagi bayoniga asosan A.A.Aripov nomzodi, Filial direktorining 04.10.2023 yil №338-K – sonli buyrug‘i filial “Kadrlar va ularning malakasini oshirish” bo‘limi boshlig‘i lavozimiga tayinlanganligi va yuqoridagi tayinlov “O‘zbekgeofizika” AJda vakant lavozimlarga ishga qabul qilish, xodimlarni boshqa lavozimga o‘tkazishda tanlov asosida saralab olish to‘g‘risida” Tartibning 2.2., 2.3. bandlari (“bo‘sh lavozimga lavozim yo‘riqnomasi va texnik talablar”) zid ravishda amalga oshirilganligi aniqlandi.

Holat bo‘yicha Jamiyat Boshqaruva raisining (Komplaens nazorati bo‘limi tomonidan taqdim qilingan Bildirgiga bo‘yicha) tegishli ko‘rsatmasiga asosan “Farg‘ona GE” filiali Attestatsiya komissiyaning 04.10.2023 yildagi qarori bekor qilinib A.A.Aripov bo‘lim boshlig‘i bo‘lim boshlig‘i vazifasidan ozod qilindi.

Jamiyatning murojaatlar bilan ishslash bo'limi tomonidan kelib tushgan yuqoridagi ariza "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 11 sentabrdagi 445-sonli Qonunining 3-bobi talablariga ko'ra "anonim murojaat deb" topilgan (murojaatchi ariza yozmaganligini yozma ravishda tasdiqlagan) va ariza bo'yicha o'rganish ishlari to'xtatilgan.

III. Minimallashtirish choralar

"O'zbekgeofizika" AJ ning 13 fevral 2024 yildagi №19-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekgeofizika" aksiyadorlik jamiyatidagi vakant lavozimlarga ishga qabul qilish, xodimlarni boshqa lavozimga o'tkazishda tanlov asosida saralab olish to'g'risida"gi yangi ta=rirda ishlab chiyilgan Nizom talablari va "O'zbekgeofizika" AJ va uning tarkibiy bo'linmalaridagi bo'sh ish (vakant) o'rinaliga ishga qabul qilishda tanlov asosida saralab olishda nomzodlarni majmuaviy tekshiruvi "O'zbekgeofizika" AJning 2023 yil 21 iyundagi 94-sonli buyrug'i 5-Ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekgeofizika" AJga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnomasi hamda bo'sh ish joylariga nomzodlarni lavozimga tayinlash, lavozimini oshirish va rotatsiya qilish jarayonlarida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha tegishli tadbirlar "O'zbekgeofizika" AJning 2023 yil 15 avgustdagи 119-sonli buyrug'i 3-Ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekgeofizika" AJning "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish Siyosati" talablari doirasida amalga oshirilishi bo'yicha barcha tarkibiy bo'linmalar, shu jumladan "Farg'ona geofizika ekspeditsiyasi" filiali rahbariyatiga Jamiyat Boshqaruв organi tomonidan qattiy ko'rsatib o'tildi.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish

va komplaens nazorati" bo'limi boshlig'i

Ochilov N.A.

29 mart 2024 yil

Bo'sh ishga qabul qilish